

JAMOAT XAVFSIZLIGI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI HUQUQIY BOSHQARISH: TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI VA AMALIY XATARLAR**Saidov Sharofiddin Abdugʻaniyevich**

Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18361069>

Annotatsiya. Maqolada jamoat xavfsizligini taʼminlash yoʻnalishida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini qoʻllashning huquqiy tartibga solinishi hamda amaliyotda uchraydigan muammolar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot DXSh loyihalarining normativ-huquqiy tabiati, vakolat va masʼuliyat taqsimoti, shartnomaviy dizayn, risklarni boshqarish, moliyalashtirish va kafolat mexanizmlarining huquqiy modelini ochib beradi. Shuningdek, natijadorlikni KPI/SLA koʻrsatkichlari orqali baholashning huquqiy chegaralari, davlat nazorati va audit instrumentlari, shaffoflik hamda korrupsiyaga qarshi komplaens talablarining amaliy qoʻllanishi yoritiladi. Alohida eʼtibor shaxsga doir maʼlumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, manfaatlar toʻqnashuvi, xizmat sifati va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini kafolatlash kabi huquqiy risklarga qaratiladi. Maqola yakunida jamoat xavfsizligi sohasida DXShni huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda nizolar va institutsional “boʻshliqlar”ni kamaytirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

Kalit soʻzlar: davlat-xususiy sheriklik; jamoat xavfsizligi; huquqiy tartibga solish; shartnomaviy dizayn; risklarni boshqarish; KPI/SLA; davlat nazorati; komplaens; kiberxavfsizlik; shaxsiy maʼlumotlar himoyasi.

Аннотация. В статье рассматриваются правовые механизмы регулирования государственно-частного партнёрства (ГЧП) в сфере обеспечения общественной безопасности и анализируются ключевые проблемы правоприменительной практики. Исследование раскрывает нормативно-правовую природу проектов ГЧП, разграничение полномочий и ответственности, договорный дизайн, управление рисками, финансовые модели и гарантии. Освещаются правовые пределы оценки результативности через KPI/SLA, инструменты государственного контроля и аудита, требования прозрачности и антикоррупционного комплаенса. Отдельное внимание уделяется правовым рискам защиты персональных данных и кибербезопасности, конфликту интересов, качеству услуг и гарантиям соблюдения прав и свобод граждан. В заключении сформулированы предложения по укреплению правовой определённости, снижению конфликтности и повышению устойчивости механизмов ГЧП в сфере общественной безопасности.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство; общественная безопасность; правовое регулирование; договорный дизайн; управление рисками; KPI/SLA; государственный контроль; комплаенс; кибербезопасность; защита персональных данных.

Abstract. This article examines the legal regulation of public-private partnerships (PPPs) in the public safety domain and highlights practical challenges that arise in implementation. The study addresses the normative nature of PPP projects, the allocation of powers and liabilities, contract design, risk management, financing and guarantee mechanisms. It discusses the legal boundaries of performance assessment using KPIs/SLAs, public oversight and audit tools, transparency requirements, and anti-corruption compliance. Particular attention is paid to legal risks related to personal data protection and cybersecurity, conflicts of interest, service quality, and safeguards for citizens' rights and freedoms.

The article concludes with recommendations aimed at strengthening legal certainty, reducing disputes, and improving the institutional resilience of PPP-based public safety solutions.

Keywords: *public-private partnership; public safety; legal regulation; contract design; risk management; KPIs/SLAs; public oversight; compliance; cybersecurity; personal data protection.*

Jamoat xavfsizligini ta'minlash zamonaviy boshqaruvda yuqori texnologiyalar, uzluksiz servis va infratuzilmaviy yechimlarni talab qiladigan kompleks vazifaga aylandi. Shu sharoitda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari xavfsizlik infratuzilmasini yangilash, raqamli platformalarni joriy etish va xizmatlar sifatini oshirish uchun muhim instrument sifatida maydonga chiqmoqda. Biroq xavfsizlik sohasi davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari va ommaviy manfaatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli DXShni qo'llash jarayonida vakolatlar doirasini aniqlash, shaffoflik, javobgarlik, ma'lumotlar himoyasi, korrupsiyaga qarshi komplaens hamda xizmat sifati kabi muammolar keskinlashadi. Mazkur maqolada aynan shu huquqiy tartibga solish masalalari va amaliy xatarlar tahlil qilinib, ularni minimallashtirishga qaratilgan mexanizmlar asoslanadi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos tizimi va huquqiy mexanizmi shakllanib, rivojlanib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni¹ muhim ahamiyatga ega.

Harakatlar strategiyasi asosida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish, yirik ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, turli xil muhim ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat xavfsizligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, ushbu sohadagi masalalarni huquqiy tartibga solish, ichki ishlar organlariga qonun bilan yuklatilgan vazifa va vakolatlarning amaliyotda samarali bajarilayotganligi holati, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamoat xavfsizligi ta'minlanayotganligi darajasi tahlil qilinib, ushbu yo'nalishda tegishli takliflar ishlab chiqish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish uchun izchil ravishda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib 5 ta davlat dasturi qabul qilinib, O'zbekistonni rivojlantirish uchun jami 118 ta fundamental g'oya ilgari surilib, o'tgan davrda Harakatlar strategiyasini ro'yobga chiqarish uchun 311 ta qonun 2000 ga yaqin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 3000 dan ziyod Hukumat qarorlari qabul qilingan².

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-3107036>.

² <https://strategy.uz/index.php?news=1382> (murojaat sanasi: 12.02.2024).

O'zbekiston Respublikasida 2019 yil 10 mayda «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi O'RQ-537-son qonuni³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-aprelda PQ-5979m-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida Milliy gvardiya faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga o'tkazish to'g'risida"gi Qarori⁴, 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni⁵, 2020 yil 7 dekabrda «Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4913 son Qarori⁶ mamalakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini rivojlantirish borasida qabul qilingan muhim bir hujjatlardandir.

O'zbekiston Respublikasi «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi qonuni bilan davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan konsessiyalar sohasidagi munosabatlar tartibga solindi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida Milliy gvardiya faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga o'tkazish to'g'risidagi qaror asosida esa, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qurolli Kuchlar qo'shinlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo'lgan asosiy vazifa va funksiyalari belgilab berildi. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavyum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash, favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash, qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish⁷ shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi

³ O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son qonuni, 10.05.2019 y., // <https://lex.uz/docs/-4329270>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-aprelda PQ-5979m-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida Milliy gvardiya faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga o'tkazish to'g'risida"gi Qarori

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5344118>.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrda «Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4913 son Qarori// <https://lex.uz/docs/51462986>.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-aprelda PQ-5979m-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida Milliy gvardiya faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga o'tkazish to'g'risida"gi Qarori

Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni⁸ mazkur sohani rivojlantirishning yangi bosqichga olib chiqdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimi belgilab berildi. Jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi subyektlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat⁹.

Xususan, mazkur hujjat asosida 2022-2025-yillarda O‘zbekiston jamoat xavfsizligi tizimini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Bu strategiya mamlakatda davlat xavfsizligini ta‘minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy va tashkiliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirishni o‘z ichiga olgan.

Ta‘kidlash kerakki, Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonun va jamoat xavfsizligi konsepsiyasi asosida mamlakatimizda jamoat xavfsizligiga doir huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda fuqarolar hamda jamoat tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorlik qilish yo‘lga qo‘yilgan. Albatta, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta‘minlash bevosita davlatning strategik vazifasi hisoblanadi. Dunyoda kundan-kunga kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish, uning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblarini joriy etish, sohaga zamonaviy texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini olib kirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Aynan ushbu zarurat bugungi kunda jamoat xavfsizligi tizimida ham davlat sherigi va xususiy sherikning o‘z resurslarini birlashtirishni taqazo etmoqda. Ammo, jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasiga xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanishning milliy huquqiy mexanizmlari yetarli darajada emas.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi qonuni¹⁰ muayyan sohalarda uning amalga oshirish mexanizmlari shakllandi. Ammo jamoat xavfsizligi sohasida davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish yetarlicha rivojlanmagan va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari ancha zaif. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish sohasida ham davlat-xususiy sheriklik loyihalari tashkil qilinishi mumkinmi? Davlat jamoat xavfsizligi tizimining qaysi sohalarda xususiy sheriklar bilan hamkorlik qilishi mumkin? Bu savollar ijtimoiy hayotimizda o‘z yechimini kutmoqda.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni <https://www.lex.uz/ru/docs/5749291>.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni <https://www.lex.uz/ru/docs/5749291>.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-son qonuni, 10.05.2019 y., // <https://lex.uz/docs/-4329270>.

Davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi¹¹ tushuniladi. Shu o'rinda *jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik* tushunchasiga bugungu kunga qadar turlicha yondashuvlar mavjud. Davlat-xususiy sheriklik tushunchasining qonundagi ta'rifidan kelib chiqib "*jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik*" tushunchasiga shunday ta'rif berish mumkin: "davlat sherigi va xususiy sherikning jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yichamuayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligidir".

Bugungi kunda xalqaro maydonda davlat-xususiy sheriklik («Public Private Partnership») keng qo'llaniladigan moliyalashtirish modeli hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, ushbu institut mamlakatda byudjet yetishmasligi sababli iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy sohalarida davlat resurslarining kechikishini yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashini oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ilmiy adabiyotlarda olimlar tomonidan davlat-xususiy sheriklik aynan ijtimoiy sohada vujudga kelganligi to'g'risida fikr bildiradilar. Masalan, I.Tulukcu o'zining ilmiy tadqiqotlarida "Tarixning ilk davrlaridan boshlab davlat-xususiy sheriklik mavjud bo'lganligini, bunga asos sifatida qadimgi davrlarda ko'plab jamoat joylari (portlar, bozorlar va boshqalar) va infratuzilma xizmatlari (mehmonxonalar, hammomlar va boshqalar) davlat tomonidan xususiy sektorga imtiyoz sifatida berilganligini"¹², aytadi.

Albatta I.Tulukcu fikrini butunlay rad qilib bo'lmaydi. Garchi o'sha davrda yuqorida keltirilgan obyektlar va xizmatlarni tashkil etish bevosita davlatning funksiyasiga kirmagan bo'lsa-da, ammo ular aholi manfaati uchun tashkil qilingan va ularni nazorat qilish ham davlat zimmasida bo'lgan bo'lishi mumkin. Ta'kidlash kerakki, xususiy sheriklik asosida hamkorlik qiladigan sohalar aholi va jamiyatning talabidan (ehtiyojidan) kelib chiqqan holda davlat tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi Qonunida davlat-xususiy sheriklik qo'llaniladigan sohalar umumiy tarzda bayon qilingan. Xususan, qonunning 3-modda birinchi qismida «davlat-xususiy sheriklik obyekti – loyihalashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, yetkazib berilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiyalashtirilishi, ekspluatatsiya qilinishi va xizmat ko'rsatilishi davlat-xususiy sheriklik loyihasini ro'yobga chiqarish doirasida amalga oshiriladigan mol-mulk, mulkiy komplekslar, ijtimoiy infratuzilma, yer uchastkalari, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida joriy etilishi lozim bo'lgan ishlar (xizmatlar) va innovatsiyalar»¹³ bo'lishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son qonuni, 10.05.2019 y., // <https://lex.uz/docs/-4329270>.

¹² İsmail TULUKCU. Kamu-Özel Ortaklıkları: Farklı Kurumsal İşleyiş Ve Hedefler Varlığında Yönetişim Beceriler (Public-Private Partnerships: Governance Skills In Different Institutional Operations And Purposes) <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/844708>.

¹³ O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son qonuni, 10.05.2019 y., // <https://lex.uz/docs/-4329270>.

Mutaxassislarning fikricha, milliy qonunchiligimizda belgilangan «davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish mumkin bo'lgan infratuzilma sohalarining ochiq ro'yxati eng ilg'or yondashuv bo'lsa-da, u davlat resurslari (byudjet mablag'lari, yer va boshqa mulklar) sarflanishini nazorat qilish uchun davlat zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi¹⁴.

Darhaqiqat, milliy qonunchiligimizda davlat-xususiy sheriklikning amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlari sanab o'tilgan bo'lib, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa sohalarida ham davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan. Biroq davlat-xususiy sheriklik amalga oshirilmaydigan sohalar mazkur qonunda aniq belgilab berilgan¹⁵.

Davlat-xususiy sheriklik davlat infratuzilmasining turli sohalarida loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Jamoat xavfsizligi o'z xususiyatiga ko'ra ijtimoiy sohaning alohida yo'nalishi hisoblanadi va milliy qonunchiligimizda jamoat xavfsizligi sohasida davlat-xususiy sheriklikni tashkil etish bo'yicha ta'qiq mavjud emas.

Har qanday mamlakatda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishi uchun avvalo qonunchilik bazasi zarur. Mamlakatimizda so'nggi yillarda jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishning birlamchi huquqiy asoslari yaratilganligini ta'kidlash o'rinlidir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrda «Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalariga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4913 son Qarori¹⁶, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-27-son Farmoni shular jumlasidandir¹⁷.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 21 aprelda «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga xususiy sektorni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 232-son qarori¹⁸ asosida Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida 2021 yil 1 martdan boshlab mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlariga avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalari buzilganligini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalarini o'rnatish huquqi berildi. Mazkur qarorning 4-bandiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlariga tegishli maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidabuzarliklaridan undirilgan jarima summasi ishga tushirilgan kundan boshlab 1 yil davomida 50 foizi, ishga tushirilganidan 1 yil o'tgandan so'ng 25 foizi – tadbirkorlik subyekti hisobiga yo'naltirilishi belgilab berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 sentyabrda «Mahallalarda jamoat

¹⁴ В.Килингаров, Б.Шамсиев, Ф.Камалов. Государственно-частное партнерство: общее понятие и стандарты национального регулирования <https://www.dentons.com/ru/insights/articles/2018/october/-4/a-public-private-partnership-general-concept-and-standards-of-national-regulation>.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son qonuni, 10.05.2019 y., // <https://lex.uz/docs/-4329270>.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son qonuni, 10.05.2019 y., // <https://lex.uz/docs/-4329270>.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni <https://www.lex.uz/-/ru/docs/5749291>.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-aprelda «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga xususiy sektorni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 232-son qarori// <https://lex.uz/ru/docs/5382965>.

tartibini saqlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 588-son qarori¹⁹ asosida fuqarolar yig'inlarida tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning mulkiga bo'lgan tajovuzlarning oldini olish maqsadida barpo etilgan ayrim «Jamoatchilik nazorati maskanlari»ni eksperiment tariqasida videokameralar o'rnatish sharti bilan, tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berib, ular negizida «Elektron kuzatuv maskanlari» faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi.

Mazkur qarorning 3-bandiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlariga beriladigan maskanlar va ularning binolari atrofidagi yer uchastkalarining 6 kvadrat metr maydonigacha «Elektron kuzatuv maskanlari»ni joylashtirish uchun, qolgan qismi tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun besh yil muddatga ijara to'lovining «nol» stavkasi asosida ijaraga berilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda subyektlarning o'z resurslarini birlashishida ikki taraflama manfaatdorlik mavjud. Bunda faqat xususiy sektorlar emas, balki davlat va jamiyat ham manfaatdordir. Xususan, xususiy sektorlar o'zlarining mablag'ini investitsiya qilib, tegishli foyda olishga erishsa, davlatning manfaatdorligi, bevosita aholi va jamiyat manfaatdorligi bilan qo'shilib ketadi. Ushbu manfaatdorlikni bevosita jamoat xavfsizligi nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, tizimning moddiy-texnik bazasi zamonaviylashib, aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilish tizimining samaradorligi ortadi. Pirovardida mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash darajasi sifat jihatidan ortishi va «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya amalda ta'minlanishiga erishiladi.

Albatta jamoat xavfsizligi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ta'minlanishi zarur bo'lgan davlatning muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. O'tgan 2017 – 2021 yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi davrida to'plangan tajriba shuni ko'rsatdiki, endilikda davlatning vazifasi sifat, mazmunan va shaklan o'zgarmoqda.

Bugungi raqobat dunyosi, investitsiyaviy jozibadorlik ushbu sifat o'zgarishlarini talab etmoqda.

Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat, investor va tadbirkorlarning birlashgan imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish lozimligini davrning o'zi taqozo qilmoqda. Chunki, jamoat xavfsizligini sifat jihatdan yuqori saviyada ta'minlash davlatning o'zidan katta miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi. Iqtisodiy qudratli davlatlar ham jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik institutidan keng foydalanadi. Shu bilan birga davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish masalasi barcha davlatlarda va xattoki rivojlangan mamlakatlarda ham asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Ye.V.Egorov, I.S.Minina davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biri «Xususiy hamkorlar asosiy xavf-xatarlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olganligi sababli loyihani amalga oshirishga ishtiyoqi yo'q»²⁰ deb hisoblaydilar. Albatta ushbu fikrga qo'shilgan holda ta'kidlash mumkinki, mazkur sohani jadal rivojlantirish va xususiy investorlarni keng jalb qilishda qonunchilikka davlat-xususiy sheriklik

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 sentyabrdagi «Mahallalarda jamoat tartibini saqlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 588-son qarori // <https://lex.uz/docs/5645181>

²⁰ E.V.Egorov, I.S.Минина. Правовое регулирование государственно-частного партнерства в России и за рубежом. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-gosudarstvenno-chastnogo-partnerstva-v-rossii-i-za-rubezhom/viewer>.

manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qo'llab-quvvatlashning samarali tizimlarini kiritish ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

E'tirof etish kerakki, jamoat xavfsizligi masalasi mamlakatimizda davlatning siyosiy strategik vazifasi hisoblanadi. Huquqshunos olimlarimiz ta'kidlaganidek, «Jamoat xavfsizligini ta'minlash yaxlit tizim sanalib, u davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan, doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oladi»²¹. Shunga ko'ra jamoat xavfsizligining barcha yo'nalishlarida har doim ham davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish imkoni bo'lmaydi. Masalan, xususiy izquvarlik instituti AQSh va Yevropaning bir qator davlatlarida samarali tashkil etilgan bo'lsa-da, ayrim davlat qonunlarida, shu jumladan milliy qonunchiligimizga ko'ra ham mazkur sohada xususiy sheriklik ta'qiqlangan. Fikrimizcha, mamlakatimizda xususiy izquvarlik institutini joriy qilish masalasini ham o'ylab ko'rish vaqti keldi.

Darhaqiqat jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta'minlash ham milliy qonunchiligimiz, ham ijtimoiy hayotimiz uchun nisbatan yangi soha hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklikning institutsional-huquqiy asoslarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi Konsepsiyasi hamda 2022 – 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi talablariga muvofiq jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish, jamoat xavfsizligi sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning kelib chiqish omillari, sabablari va shart-sharoitlari yuzasidan tizimli va ilmiy tahlillarni amalga oshirish, jamoat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalar belgilangan²².

Darhaqiqat, ilg'or xorijiy va milliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik asosida ijobiy natijalarga erishish mumkin. Avvalo, jamoat xavfsizligida davlat-xususiy sheriklik nisbatan yangi soha ekanligini e'tiborga olgan holda bu yo'nalishda maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda ilmiy jamoatchilik va huquq amaliyotchilari oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'yish mumkin. Bular:

birinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik - davlat sherigi va xususiy sherikning jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yichamuayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligidir.

ikkinchidan, jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta'minlash tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish asosida sohani rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

²¹ M.Baratov, N.Kuldashev. Jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta'minlash istiqbollari. https://uza.uz/uz/posts/jamoat-xavfsizligini-davlat-xususiy-sheriklik-asosida-taminlash-istiqbollari_349465

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni <https://www.lex.uz-ru/docs/5749291>.

uchinchidan, Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonun hamda jamoat xavfsizligi konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtirish orqali jamoat xavfsizligining qaysi sohalarida davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish mumkinligini aniqlashtirish va uning zamonaviy mexanizmlarini yaratish;

mazkur sohaga xususiy sektorlarni keng jalb qilish maqsadida davlat-xususiy sherikning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qo'llab-quvvatlashning samarali turlarini ishlab chiqish, ijtimoiy adolatli imtiyozlar va preferensiyalar yaratish va joriy qilish;

to'rtinchidan, mamlakatda jamoat xavfsizligi tizimini ushbu sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali modernizatsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish;

beshinchidan, jamoat xavfsizligini davlat-xususiy sheriklik asosida ta'minlashga doir milliy xususiyatlar va sharoitlar e'tiborga olgan holda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy qonunchilikka integratsiya qilish bo'yicha asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish asosida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish.

Jamoat xavfsizligi sohasida DXSh mexanizmlarining samarasi, avvalo, huquqiy aniqlik va institutsional hisobdorlik darajasiga bog'liq. Amaliy muammolarning asosiy qismi shartnoma predmetining noaniqligi, risk va javobgarlikning yetarli taqsimlanmagani, KPI/SLA mezonlarining huquqiy jihatdan mustahkamlanmagani, davlat nazorati va auditning sustligi, shuningdek ma'lumotlar xavfsizligi hamda komplains talablari yetarli integratsiya qilinmagani bilan izohlanadi. Shu bois, DXSh loyihalarida vakolatlar chegarasini normativ darajada belgilash, shartnomaviy standartlarni joriy etish, natijadorlik mezonlarini huquqiy instrumentlar bilan bog'lash, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kafolatlarni kuchaytirish, shaxsiy ma'lumotlar va kiberxavfsizlik bo'yicha majburiy talablarni mustahkamlash DXShning barqaror va legitim ishlashini ta'minlaydi.

Natijada, DXSh jamoat xavfsizligini "davlat manfaatlari — fuqarolar huquqlari — xususiy sektor samaradorligi" muvozanatida ta'minlaydigan barqaror huquqiy mexanizmga aylanishi mumkin.